



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 1(4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;  
Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI .....	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР .....	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI .....	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ .....	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI .....	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI .....	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР .....	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ .....	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR .....	66-71

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ .....	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI .....	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI .....	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ .....	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ .....	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ .....	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI .....	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI .....	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ .....	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI .....	158-170

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома .....	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ .....	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ .....	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI .....	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK .....	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida) .....	205-214

*Shukurov Orif Jumaboyevich*

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari ..... 215-219

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys ..... 220-227

*Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи*

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ ..... 228-232

*Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna*

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI ..... 233-237

*Uliqova Mavludaxon*

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI ..... 238-243

*Rahmonov Asror ibni Nusrat*

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI ..... 244-252

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI .... 253-258

*Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR .... 259-265

*Vokhidova Tamanno Saidjonovna*

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION ..... 266-271

*Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna*

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI ..... 272-277

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI ..... 278-286

*Mirzaev Shukhrat Shavkatovich*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ ..... 287-293

*Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li*

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL ..... 294-301

*Islombek Abdikhakimov*

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES ..... 302-309

*Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi*

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ ..... 310-315

*Jiyenbayev Baxadir Ospanovich*

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA ..... 316-322

*Alishaev Sobir Tursunboevich*

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ .....	330-339
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ .....	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI .....	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI .....	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI .....	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА .....	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH .....	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI .....	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI .....	398-403

**Rahmonov Asror ibni Nusrat**  
Termiz Davlat Universiteti magistranti

### **HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nemis adibi Hermann Hesse hayoti va ijodi, uning yirik asarlari, adabiyotga qoshgan ulkan qissalari haqida to'liq o'r ganib chiqamiz. Hermann Hesse adabiyotga o'zgacha nigoh bilan qarab o'z asarlarida ham shu haqda aks ettirgan.

**Kalit so'zlar:** laureati, shoir, yozuvchi, rassom, Siddxarta, yirik asarlar.

**Rahmonov Asror ibni Nusrat**  
Master's degree of Termez State University

### **THE LIFE, WORK AND PLACE OF HERMANN HESSE IN LITERATURE**

**Abstract.** In this article, we will fully study the life and work of the German adibologist Hermann Hesse, his major works, huge short stories that he contributed to literature. Hermann Hesse reflected on this in his works, looking at literature with a special look.

**Keywords:** laureate, poet, writer, artist, Siddhartha, major works.

**Рахманов Асрар ибни Нусрат**  
Магистрант Термезского государственного университета

### **ЖИЗНЬ, ТВОРЧЕСТВО И МЕСТО ГЕРМАНА ГЕССЕ В ЛИТЕРАТУРЕ**

**Аннотация.** В этой статье мы подробно рассмотрим жизнь и творчество немецкого писателя Германа Гессе, его крупные произведения, огромные рассказы, которые он внес в литературу. Герман Гессе с особым взглядом на литературу размышлял об этом и в своих произведениях.

**Ключевые слова:** лауреат, поэт, писатель, художник, Сиддхарта, крупные произведения.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N33>

**Kirish.** XX asrning buyuk adibi, nobel mukofoti laureati, shoir, yozuvchi, rassom Hermann Hesse 1977-yil 2-iyulda Olmoniyaning Kalv shaharchasida, missioner oilasida tavallud topgan. Uning oilasi zamonasinig ziyoli oilalaridan bo'lib, oiladagi adabiy muhit H. Hessening yetuk adib sifatida ulg'ayishiga salmoqli rol o'ynadi. Uning ota-bobolari kasblari taqazosi bilan tez-tez sharqqa, xususan, Hindistonga xizmat safarida bo'lib turishgan va umrlarining salmoqli qismini sharqqa o'tkazishgan. Uning onasi, Marie Gundert, ham Hindistonda, olmon missonerlari oilasida tavallud topgan. Tabiiyki, oilaning yaqin do'stlari ham asosan shu doiradan bo'lishgan.

Hesselar oilasi anchagina mehmonnavoz bo'lgani bois ularning uyida doimo do'stlar to'planib turishar va ko'pincha Sharq (Hindiston) madaniyati, adabiyoti va urf odatlari haqida

maroqli suhbatlar uyushtirilar edi. Yosh Hermann esa bevosita bu suhbatlarning guvohi bo'lar va katta qiziqish bilan tinglar edi. Bundan tashqari unung bobosi Karl Hesse ham taniqli Sharqshunos-Hindshunos olim bo'lgan. U o'zining Hindistondagi faoliyati davomida Hind tillarini, urf-odati, madaniyati va tarixini qunt bilan o'rganadi va birinchi marotaba hindcha-olmoncha (hind shevalaridan birini asos qilgan holda) lug'atini yaratadi. Karl Hesse Hindistondan ko'plab Hind ma'budlari tasvirlangan haykalchlar, qadimiy bitiklarning qo'lyozma nusxalari va hind madaniyatiga oid boshqa bir qancha madaniy yodgorliklarini o'z yurtiga olib keladi. Karl Hessening juda boy kutubxonasi mavjud bo'lib, unda juda ko'p kitoblar, xususan, sharqshunoslikka oid asarlar jamlangan edi. Bu haqida keyinchalik Hermann Hessening o'zi "Shaxsiy kutubxona" nomli publisistik maqolasida mufassal malumot berib o'tadi. Bularning barchasi Hermann Hessening Sharqqa, uning afsonaviy olami-madaniyati, urf-odatlari, tarixi, diniy etiqodlari va sheriyatiga muhabbatini oshiradi. Uning ko'plab asarlari, jumadan, "Siddharta", "Sharqqa sayohat" asarlari shu muhabbat mevasidir. Shuningdek adibning deyarli barcha asarlarida sharqqa oid elementlarni uchratish mumkin. Hermann Hesse bolalik chog'idanoq tengdoshlaridan o'zining zukkoligi va qobiliyati bilan farq qilar edi. Bu haqida uning onasi otasiga yozgan xatida shunday degan edi; "... bolakay hali to'rt yosh bo'lishiga qaramasdan juda teran fikrlaydi. Uning murg'ak qiyofasida qandaydir g'ayritabiiy kuch o'z ichki mag'rur "Men"i bilan kurash olib borayotgandek tuyuladi...", "... Xudoni o'zi uni ichki mag'rur ruhiyati yo'lga solsinda, ishqilib. Agarda bu ruhiyat noto'g'ri tarbilansa, oxiri nima bo'lishini eslab titrab ketaman...[1]".[ 1; 400 b.]

Ota-bobosi kasblari taqazosи bilan tez-tez ko'chib turishganligi sababli Hermann ham tez-tez mакtab almashtirishga majbur bo'lar edi. Shuningdek, bir makonda ildiz otmaganliklari sababli, ma'lum bir hududda malum bir vaqt xuddi kelgindidek, begonadek yashashga majbur edilar[2].[2; 414 b.] Bu narsa ham Hermannning ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadи va bu begonalikni keyinchalik uning asarlarida uchratish mumkin. U har-xil maktablarda tahsil oldi va bu maktablar asosan diniy ta'lif beradigan dargohlar edi. Hermann esa bolalikdan shoir bo'lishni orzu qilar edi. Bu haqida ham keyinchalik asarlaridan birirda "...yo bir shoir, yo hech kim..." deb yozgan edi. Bu fikr uning ongiga o'rnashib qolgan edi va shu sababli Maulbrondagi diniy maktabda teologiya seminaridan qochib ketadi. O'sha zamонлarda bu kabi qilmishlar juda qoralanar edi. Bu qilmishidan so'ng uning ota-onasi bilan munosabatlarida darz ketadi va bu mojarola surunkali davom etadi. Hermann 14 yoshga to'lganida chuqur depressiyani boshdan o'tkazadi va o'z joniga qasd qilishni o'lay boshlaydi. U 1892 yil 20-martda yozgan maktubida bu haqida shunday yozgan edi: "Men quyosh singari botishni xohlayman...". Shundan so'ng, ota-onasi Hermanni Shtutgart yaqinida joylashgan ruhiy kasalxonaga joylashtirishadi va u kasalxonaning bog'ida ishlashi va aqli zaif bolalarni o'qitishga yordam berishi kerak edi. Yosh H.Hesse ushbu dargohda o'zini juda yolg'iz his etar, boshida tushgan ko'rgililiklarga oilasini, xususan, otasini ayblar edi. Uning nazarida butun olam undan yuz o'girgandek edi go'yo. 1992-yil 14-sentabrda otasiga yozgan maktubi avvalgilaridan umuman farq qilar edi. U o'z maktubini shunday misralar bilan boshlagan edi: "Hurmatli Janob ...[1]". Maktub nihoyatda istehzoli ruhda bitilgan bo'lib, boshidan kechirgan barcha ko'rgililiklarga oilasini, oiladagi mutaassib diniy muhitni sababchi qilib ko'rsatgan edi. Shuningdek, keyinchalik sodir qilishi mumkin bo'lgan jinoyatlaru-beboshliklarga ham oilasini ayblar edi. Shu yilning o'zida Kannshtatdagи gimnaziyada tahsil ola boshlaydi. 1893-yili yakuniy imtixonlarni muvaffaqiyatli topshirgan bo'lsa-da, o'qishni tark etadi. H.Hesse Esslingen am Neckar shahrida kitob do'konida sotuvchi

yordamchisi sifatida ish boshlaydi va ko'p o'tmay bu yerni ham tak etadi. Shundan so'ng 14 oy davomida Kalv shiridagi Perrot soatlari zavodida mexanik yordamchisi bo'lib ishlaydi. Xuddi shu davrda u yana adabiyotga qiziqqa boshlaydi va asosan bolalik xotiralari aks etgan asarlar yoza boshlaydi. Adibning "Unterm Rad" asari ushbu yoshlik xotiralari asosida yozilgan yirik asarlaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Adib ilk asari – "Ikki aka-uka"ni o'n yoshida yozgan. Asar 1951-yilda e'lon qilingan. 1895-yili oktabr oyidan Tubingen Shahrida yana kitob sotuvchisi yordamchisi sifatida ishlay boshlaydi. Do'konda asosan antikvar kitoblar sotilar va Hermann ktoblarni yo'nalishlari bo'yicha qadoqlashi, saralashi va arxivlashi kerak edi. 12 soatlik ish kunidan so'ng mustaqil ravishda o'z ustada ishlay boshladi. Gyote, Lessing, Schiller asarlarini va yunon mifologiyasini chuqur tahlil qildi. Shuningdek, adabiyot bilan ham izchil shug'ullana boshladi. Uning Venadagi mshhur jurnallardan birida chop etilgan madonna sheri unga birmuncha shoir sifatida shuhrat keltirdi. 1898-yilda kitob do'konidagi shogirdlik o'quvi yakunlanadi va endi sotuvchi vazifasida ishlay boshlaydi. Uning daromadi bir muncha o'sadi va ota-onasidan moliyaviy mustaqillikka erishadi. Bu davrda olmon romantizm asarlarini, ayniqsa, Novalis, Klemens Brentano, Yozef fon Axyendorf kabi adiblarning asaalarini mutoala qiladi. Kitob savdosi bilan shug'ullanish bilan birga, asarlar ham yozadi. 1898-yilning kuzida "Romantik qo'shiqlar (Romantische Lieder)", keyingi yilning yozida esa "Yarim tun ortida bir soat(Eine Stunde hinter Mitternacht)" she'riy to'plamlari chop etiladi. Har ikki to'plam ham tijoriy muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Leipzig nashriyotining bosh muharriri Eugen Dieterich kitoblarni chop etishdan avval bu muvaffaqiyatsizlikni taxmin etgan bo'lsa-da, yosh shoirni qo'llab quvvatlash, ruhlantirish maqsadida asarlarni chop ettirgan edi[3; 43 b.]

Hesse 1899-yilning kuzidan bazeldagi katta bir kitob do'konida ishlay boshlaydi. Bazel shahrida oilasining ziyoli qatlamlarda ko'p do'stlari borligi, Hemann Hessegaga yangi adabiy va estetik imkoniyatlar yaratdi. Bundan tashqari, shahardagi muhit, tabiat va so'lim havosi Hessening ko'ngliga yoqib tushgan edi. U yolg'izlikni yoqtirar va tevarak-atrofga tez-tez sayrga chiqardi. Ushbu adabiy muhit, yolg'izlikda etgan sayu-sayohatlari Hessening chinakam adib sifatida yetilishida amamiyatli bo'lди. 1900-yilda ko'rish qobiliyati sustlashib ketganligi sababli harbiy xizmatdan ozod etildi. U umrining oxirigacha ko'z va bosh og'rig'i, shuningdek doimiy stresslardan qiynalib o'tdi. O'sha yili adibning "Hemann Lauscher" to'plami chop etildi. Hesse 1901 yili kitob do'konidagi lavozimidan ketdi va anchadan beri orzu qilib yurgan o'lkasi – Italiyaga sayohatni amalga oshirdi. Mart oyidan maygacha Italiyadagi ko'plab diqqatga sazovor joylarni ko'rди. O'sha yilning avgust oyidan Bazeldagi boshqa bir antikvar kitob do'koniga ishga kirdi. Uning sherlari va badiiy matnlari shuhrat qozona boshladi va har xil jurnal va nashriyotlardan tez-tez taklif va buyurtmalar, shuningdek, mo'maygina qalam haqqi ham ola boshladi. 1902-yilda Bazel shahrida "Mia" taxallusi bilan tanilgan Maria Bernoulli suratchi ayol bilan tanishadi va u bilan birgalikda yana Italiyada sayohat qiladi. 1904-yilda ular turmush qurishadi. Hessening ilk romanlari – "Peter Camenzind" 1904 yilda va "Unterm Rad" 1906-yilda nashr etiladi. Ushbu asarlar keyinchalik Hessening butun ijodiga singib ketgan ruh va tabiat o'rtasidagi ziddiyatlarga bag'ishlangan. Ushbu asarlar unga yozuvchi sifatida katta shuhrat keltiradi. "Peter Camenzind" asarining muvaffaqiyatidan so'ng u uylanishga va erkin yozuvchi sifatida faoliyat yuritishga qaror qiladi. U Bodensee ko'li yaqinida ko'chib boradi[2] va u yerda ijodga beriladi. Hesselar oilasi Bodensee yaqinida joylashgan chekka bir qishloqning suv va elektr ta'minoti mavjud bo'lмаган hovlini ijaraga olishadi va u yerda uch yil istiqomat qilishadi.

Keyinroq ko'l yaqinida boshqa bir qishloqqa uy qurib, uyni oldidan kattagina bog' yaratib ko'chib o'tishadi. Ular uch nafar o'g'il farzand ko'radilar. Hesse tez-tez sayohatda bo'lar, maria va bolalar esa uy-ro'zg'or, bog' ishlari bilan shug'ulanishar edi[4].[4; 322 b]

1906-yilda u Albert Langen tomonidan chop etiladigan "Mart" nomli jurnalning muharriri va hamkori bo'ldi va u erda 1912-yilgacha faoliyat yuritdi[3]. Uning ushbu yillarda chop etilgan "Unterm Rad" nomli ikkinchi romani maktab va o'smirlik chog'laridagi boshidan o'tkazgan ruhiy iztiroblar asosida yaratildi. 1907-yil aprel oyida Lokarnoda davolanadi va malum bir muddat Shveisariyadagi Ascona kommunasida qoladi. Uyga qaytgach "Gertrud" romanini nashrdan chiqaradi. Ushbu roman muvaffaqiyat topmadi va Hesse ijodining inqirozi sifatida tan olindi.

**Muhokama.** 1910-yillardan Hessening turmush o'rtog'i bilan munosabarlari buzila boshlaydi. Oilaviy notinchlik va ijodiy inqirozdan uzoqlashish maqsadida do'sti Hans Shturzenegger bilan Seylon va Hindistonda uzoq vaqtga sayohatga otlanadi. U Hindistonga o'zi kutgan manaviy ilhomni topa olamagan bo'lsa-da, ushbu sayohat uning kelgusidagi adabiy faoliyatiga kuchli ta'sir o'tkazdi va 1913-yilda ushbu taassurotlarni o'z ichida jamlagan "Hindistondan" to'plamini e'lon qildi. Biroq u Hindistonda bo'lmadi. Faqatgina Britaniya mustamlakasi ostidagi Seylondagi Kolombo, Kandi, yaqin atrofdagi ibodatxonalarini, shuningdek, Niderlandiya mustamlakasi bo'lgan Pidurutalagala tog'ini va Indoneziyani ziyorat qildi. Hesse Osiyodan qaytgach, 1912 yilda Gayenxofendagi uyini sotdi. Yoz oxirida oila Bern yaqinidagi eski qishloq uyiga ko'chib o'tdi. Lekin Hesse o'zining 1914-yildagi <Ross halde> romanida ta'riflaganidek, bu joyning o'zgarishi ham oilaviy muammolarni hal qila olmadidi. Oilaviy notinchlik surunkali davom etar va bu narsa juftlik sog'ligiga ziyan yetkazardi. Notinchlik sabab Maria 1919-yilda Teodor Brunner sanatoriyasida davolanib chiqadi. Keyinchalik, 1923-yilda ularning turmushi o'z nihoyasiga yetadi. Ota-onalar ajrashgandan keyin, bolalar ham taqsimlandi. Otasi bilan qolgan Bruno 15-yoshida Cuno Amiet rassomlar oilasi qaramog'iga beriladi. Hainer onasi bilan qoladi. Martin esa Kirchdorfdagi Ringierlar oilasiga tarbiyalanuvchi sifatida beriladi.

1914-yilda birinchi jahon urushi boshlanganida, u dastlab urush g'oyalarini yoqlab chiqdi[iv] va urush ko'ngillisi sifatida Shveysariyadagi Olmoniya elchixonasiga xabar yo'lladi. Biroq, u urushga yaroqsiz deb topildi va Olmoniyaning Berndagi elchixonasiga targ'ibot va tashviqot ishlari bo'yicha vakil sifatida tayinlandi. U yerda "Olmon harbiy asirlari uchun kitob markazi" ni tashkil etdi. U asirlar uchun kitob yig'ar, tarqatar, askarlarni ruhlantirish maqsadida ko'plab badiiy-publisistik matnlar e'lon qilar edi. U urushni qo'llab-quvvatlovchi bir qator gazeta va jurnallarda muharrirlik qildi va olmon asirlari uchun ochilgan kutubxonaga mudirlik vazifasini o'z zimmasiga oldi. Uning 3-noyabr 1914-yilda Yangi Zyurix gazetasida olmon ziyolilarini millatchilik polemikalariga tushmaslikka chaqirib yozgan "Ey do'slar, bu ohandlar emas" sarlavhasida chop etilgan maqolasi butun jamoatlichilik etirozi va tanqidiga sabab bo'ldi. Tanishu-notanishlardan ko'plab salbiy mazmundagi maktublar yog'iladi. Undan ko'plab do'stleri yuz o'girishadi. Hattoki yaqin do'sti, keyinchalik Olmoniya fedrativ Respublikasi birinchi Kansleri bo'lgan Teodor Houss va 1915-yildan H.Hesse bilan uchrashgan mashhur fransuz adibi Romain Rolland ham bu maqola bo'yicha unga o'z etirozlarini bayon qilishadi.

Oilaviy tashvish va yuqotishlar olmon jamoatchilik noroziligidan ham unga ko'proq ta'sir qildi. Uning otasi 1916 yil 7-mart kuni vafot etdi. Uch yoshli o'g'li Martin og'ir kasallik

(Miningit) bilan og'ridi. Ayoli bilan munosabatlar chigallashib ketdi. Bu ko'rgiliklar uning salomatligiga ta'sir qilmasdan qolmadı. U xizmatdan bo'shab, psixologik davolanishni boshladi. Ana shu paytda Psichoanaliz bilan tanishadi[v]. [5]

U bir o'zi Ascona shahriga ko'chib o'tadi va ma'lum muddat o'sha yerda yashaydi. Jahon urushi tajribasi tufayli Hermann Hesse urushning ashaddiy raqibi va qoralochisiga aylandi. 1917-yil sentyabr va oktyabr oylarida u o'zining "Demian" romanini uch haftalik ish chog'ida yozdi. Kitob urush tugaganidan so'ng 1919-yilda Emil Sinklair taxallusi ostida nashr etildi. Taxallusning o'zgarganining asosiy sababi Hessening nomi urushni yoqlab yozgan maqolasi tufayli jamoatchilik ko'z o'ngida obro'sizlangan edi. Shuning uch u o'z ta'biri bilan shunday degan edi: "Keksa amakining taniqli ismi bilan yoshlarni qo'rqtmaslik uchun". shuningdek, Hesse Eduard Korrodiga yo'llagan maktubida yozganidek, "...bu she'rni yozgan odam Hesse emas edi...", "balki, ko'p kitoblarning muallifi va yangi narsalarni boshdan kechirgan va yangilikka intilayotgan boshqa bir odam edi." Zamonaviy guvoh sifatida Tomas Mann shunday dedi: "Demianning elektrlashtiruvchi ta'siri unutilmas", g'ayrioddiy aniqlik bilan zamonning asabiga ta'sir qilgan she'r va ularning o'rtasidan eng chuqur hayotning jarchisi paydo bo'lganiga ishongan yoshlik ( davomida... Bu ularga kerakli narsalarni bergan qirq ikki yoshli erkak edi) ularni minnatdor zavqlanishga olib keldi[6]." 1918-yilda Hermann Hessening amakivachchasi, pastor Karl Immanuel Philipp Hesse Estoniya mustaqillik urushining tinch qurboni sifatida o'ldirildi. Bundan Hesse qayg'uga tushdi va urushga qarshiligi yanada kuchaydi. Shundan so'ng u doimo urush muhojirlarini saxiylik bilan qo'llab-quvvatladi. Uning va Albert Einshteynning aralashuvi tufayli Ikkinci Jahon urushi paytida Eduard Klavdiyga qarshi ayblovlar bekor qilindi. 1919-yillarda Hessening fuqarolik hayoti sekin-asta izga tushgan bo'lsa-da, oilaviy hayoti qayta tiklanmadı. Uning rafiqasi ham chuqur depressiyani boshdan kechirdi va davolanib chiqdi, lekin Hesse oilaviy hayotida kelajak ko'rmadi va ular ajralishdi. 1919-yilda dunyo yuzini ko'rgan "Klein va Vagner" asari ushbu oilaviy mojarolari asosida yaratilgan. Hermann Hesse 1919-yil bir necha marta manzil o'zgartirgandan so'ng may oyida Luganodan uncha uzoq bo'lмаган Montagnola qishlog'ida, 19-asrda yangi barokko uslubida qurilgan qasrmonand shinam binodan to'rtta kichik xonani ijara qilindi. Bu tog' yonbag'ridagi go'sha juda bahavo edi va u yerdan tabiatning betakror manzaralarini – Italiya tomonidagi tog' yonbag'irlarini, Lugano ko'li manzaralarini kuzatish mumkin edi. Yangi yashash sharoiti va binoning joylashuvi Hesseni nafaqat yangi adabiy faoliyatga ilhomlantirdi, balki uning rassomchilikka doir kolleksiyasini yangi eskizlar va akvarellar bilan to'ldirishga turtki bo'ldi. Adib bu davr haqida 1920-yilda yozilgan yirik hikoyasi "Klingsorning so'nggi yozi>da bat afsil tariflagan. 1922-yilda Hermann Hesse "Siddxarta" romanini nashr etdi. Bu asar uning ottonasining uyida tanishgan hind madaniyati va sharq donoligiga paydo bo'lgan va keyinchalik kuchaygan muhabbatining mevasi edi. Hesse o'zining "Hind dostononig"ning bosh qahramoni sifatida tarixiy Buddanining birinchi ismi – Siddxartani qo'lladi. Hessening o'sha paytdagi sevgilisi Rut Venger (1897-1994) uni ushbu hind dostonida Siddxartaga sevgi haqida o'rgatuvchi Kamala obrazini yaratishga ilhomlantirgan. Amerikalik yozuvchi va rassom Henri Miller ushbu asarni shunday deb baholadi: "Uning badiiy teranligi sodda va tushunarli tilda ifodalangan, bu tiniqlik, ehtimol, adabiyotda nima yaxshi-yu va nima yomonligini biladigan o'sha adabiy filistlarning ruhiy azobini tinchitadi. Umum e'tirof etilgan Buddadan ustun bo'lgan Buddani yaratish, ayniqsa olmoniyalik oddiy bir inson uchun misli ko'rilmagan ishdır. Men uchun Siddxarta Yangi Ahdga qaraganda samaraliroq doridir"[7].

Hermann Hesse 1924-yil may oyida Vyurtemberg fuqaroligidan voz kechib ikkinchi marotaba Shveytsariya fuqaroligini oldi. Birinchi xotini Mariya bilan ajrashgach, Hesse, niyoyat 1924-yil 11-yanvarda shveytsariyalik yozuvchi Liza Vengerning qizi Rut Vengerga uylanadi. Biroq, ularning turmushi tashqi tomondan jozibali va romantik ko'rinsa-da, juftlikning turxi xil dunyoqarash va qiziqishlari borligi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragan va uzoqqa cho'zilmagan. Ular 1927-yil 24-aprelda ajrashishdi. Rut Vengerning nabirasi, rejissyor Leander Hausmann 2022-yilda bergen intervusida shunday dedi: "Nikoh farzandsiz bo'lib qoldi, chunki u soxta edi. Har holda, buvim ajrashishga qaror qilgan, chunki Hermann Hesse u bilan hech qachon bir to'shakda yotmagan.[8]"

Uning navbatdagi yirik asarlari 1925-yildagi "Davolanuvchi Mehmon(Kurgast)" va 1927-yilgi "Nyurnbergga sayohat(Die Nürnberger Reise )"i istehzoli ohangga ega bo'lib, avtobiografik hikoyalardir. 1927-yilda yozilgan yana bir asari - "Cho'l bo'risi (Der Steppenwolf)" unga katta shuhrat keltirdi. U bu romanda yaqinlashib kelayotgan jahon urushi haqida "qo'rqinchli ogohlantirish chaqirig'in" ifodalagan va o'sha paytda nemis jamoatchiligi tomonidan masxara qilingan. O'sha yili adibning 50 yilligi munosabati bilan Uning tarjimai holi do'sti Ugo Ball tomonidan nashr etilgan. Muvaffaqiyatlari chiqqan yangi romanidan ko'p o'tmay u asli Bukovinalik Ninon Dolbin bilan turmush quradi. Ular 1928- va 1929-yillarda Arosa shahrida qishki ta'tilni o'tkazishdi. 1928-yilda Hesse Ulm, Xaylbronn, Vyurtsburg[9], Darmstadt va Berlinga sayohat qildi[10]. 1930-yilda "Narziß Goldmund" qissasi nashr etildi. Hermann Hesse o'zining uchta rafiqasining har biriga birtadan ertak bag'ishlagan: "Iris" ertagi (1916) birinchi xotini Miyaga, "Piktorning o'zgarishi" (1922) Rut Vengerga va uchinchi avtobiografik "Qush" hikoyasi Ninon Dolbinga bag'ishlab turmush qurbanlaridan ko'p o'tmay yozilgan.

**Natijalar.** 1931-yilda adibning "Marjonlar o'yini (Glasperlenspiel)" deb nomlangan so'nggi yirik asarini yozishni boshladi. 1932 yilda esa "Sharqqa sayohat (Die Morgenlandfahrt)" qissasini nashr etdi. Bu davrga kelib Hermann Hesse butun olmonzabon xalqlarning sevimli adibiga aylangan bo'lib, siyosatda ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. U baddiy matnlaridan birida shunday yozgan edi: "Mening do'stlarim va dushmanlarim buni uzoq vaqtidan beri bilishadi va meni ayplashadi: Men ko'p narsadan zavqlanmay qolganman. Bugungi insoniyatning faxri bo'lgan ko'p narsalarga – texnologiyayu-taraqqiyotga ham ishonmayman. Zamonamiz shon-shuhratiyu va dabdabasi va yana qandaydir katta haq to'lash lozim bo'lgan "Doxiy" ham ishonmayman. Men faqat "Tabiat" deb atalgan narsani cheksiz hurmat qilaman"[6]

Hermann Hesse Olmoniyada natsislarning hokimiyat tepasiga kelishini katta tashvish bilan kuzatdi. Bertolt Brecht, Tomas Mann va yana ko'plab adiblar mamlakatdan bosh olib chiqib ketishdi, ularning asarlari taqiplandi va ommaviy yoqildi. Hermann Hesse esa mamlakatni tark etmadi. U Olmoniyadagi voqealarga qarshi o'ziga xos tarzda harakat qildi. U fashistlar rejimiga ochiq qarshilik ko'rsatmasdan, ko'proq urushni qoralovchi asarlar va chaqiriqlar yoza boshladi. 1930-yillarning o'rtalaridan boshlab hech bir olmon gazetasi Hessening maqolalarini chop etishga jur'at eta olmay qoldi. Hermann Hessening asarlari rasman taqilganmagan yoki "yoqib yuborilmagan" bo'lsa-da, lekin "istalmagan" adabiyotlar ro'yxatida edi. Cheklowlarga qaramay, har doim yangi nashrlar chop etishga urinardi[12] va 1943-yilga kelib Berlinda Suhrkamp nashriyotida Knulp nomli asarini qayta chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Hermann Hesse siyosiy to'qnashuvlar va urush davridagi qiyinchiliklarga qaramay 1943-yilda "Marjonlar o'yini" romanini yozib tugatadi va Shveytsariyada chop etadi. U 1946-yilda "Humanizm va yuksak

stistik san'atning klassik ideallarini jasorat va teranlik bilan ifodalagani uchun" adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. (Shvetsiya akademiyasi, Stokgolm)[13].

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Hermann Hesse ijodida pasayish yuz berdi. U ko'plab sher va hikoyalar yozgan bo'lsa-da, yirik romanlarga boshqa qo'l urmadidi. Endi adabuyotshinos va muxlislarning ko'proq diqqatlari u yozgan maktublarga qaratildi. Uning o'g'illari Bruno va Heiner Hesse va Offenbaxdagagi Hesse arxivi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, Hesse 35 000 ga yaqin do'stлari va muxlislardan turli xil mazmundagi maktublar olgan. U o'ziga kotib yollamasdi va har bir amktubga o'zi shaxsan jovob yozishga harakat qilardi. Ushbu javob xatlaridan 17 mingtasi aniqlangan. U kuchli individualist sifatida u bu yondashuvni axloqiy majburiyat deb bilardi. Har kuni o'nlab maktublar olar va barchasiga birma-bir javob yozardi. Bu maktublardan shuni anglash mumkinki, Montagnoladagi "Dono chol"dan yordam va yo'l-yo'riq, shuningdek, moliyaviy yordam so'rab murojaat qilgan olmon kitobxonlarining yangi avlodи orasida uning qayta tiklangan shon-shuhuratiga guvoh bo'lish mumkin edi. 1961-yil dekabr oyida Hermann Gesse gripp kasaliga chalinib to'shakka mixlanib qoldi. U uzoq vaqt davomida o'zida leykoz kasalligi borligini bilmas edi. Hsсе 1962-yil 9-avgustga o'tar kechasi uyqusida insultdan vafot etdi. Nonushtaga kelishini kutgan rafiqasi uni yotog'ida xushsiz yotganini ko'rdi. Tezda yetib kelga oilaviy shifokori esa uni allaqachon o'lganini malum qildi. Umrining oxirida yozgan "Singan novdaning g'ijirlashi" she'rida u yaqinlashib kelayotgan o'limining ramzini yaratdi. Hessening dastlabki asarlari XX-asr an'analarida yozilgan, uning she'riyati esa butunlay romantizm uslubida yo'g'rilgan. Asarlarida mazmun jihatidan o'sib borayotgan sanoatlashtirish va urbanizatsiyaga qarshi chiqgan va shu bilan birga hayotni isloh qilish va yoshlар harakati tendentsiyasini qo'llab-quvvatlagan. Hessening dastlabki ijodi zamonaviy adabiyotshunoslar tomonidan ijobiy baholangan. U mashhur olmon psixo-analitiki Sigmund Freud shogirdi Karl Gustav Yung bilan tanishgandan keyin, asarlarida psixo-analitikadan keng foydalandi. Hayoti davomida oltmishdan ziyod gazeta va jurnallar uchun yozgan 3000 ga yaqin kitob sharhlari bilan Hesse adabiy tanqidchi sifatida shuhrat qozondi va tanqid qilish sohasida misli ko'rilmagan sifat standartlarini yaratdi. Umuman olganda, u o'z me'yorlari bo'yicha yomon deb hisoblagan adabiyotlarni ko'rib chiqmagan. Tomas Mann singari u ham Gyote ijodi bilan intensiv shug'ullangan. Uning sharhlari muallifi nomalum kichik bir hikoyada tortib, Osiyo madaniy sohasining asosiy falsafiy asarlarigacha o'z ichida qamrab olgan. Ushbu sharqga oid asarlar bugungi kunda ham mavjud, biroq ular 1970-yillarda G'arbiy yarimsharda umumiy adabiy, falsafiy va intellektual mulk bo'lishidan bir necha o'n yillar oldin Hesse tomonidan kashf etilgan va puxta o'rganilgan. Hermann Hesse qadimgi Hind dinlari, ayniqla, vedantizm va buddaviylik ta'limotlariga juda katta qiziqish bilan qaragan va ushbu ta'limotlarning ta'siri uning she'riy va nasriy merosi, ayniqla, avtobiografik asarlarida Sharq motivlaridan keng foydalangan. U ma'lum darajada Hind tilini bilgan, forsiy tilda esa birozgina muloqot qila olgan. 1927-yilda ikkinchi marotaba Eronga safar qilganida uni kutib olgan Jurnalista "Do'stim, men bilan iloji boricha tilmochsiz muloqot qiling. Go'zal va betakror tilingizni biroz bo'lsa ham o'rganishga imkon bering. Men birinchi safarimda mamlakatingiz haqida ancha-muncha tasavvurga ega bo'lgan edim. Bundan tashqari, mamlakatingiz haqida buyuk Herodotning "Klio" asaridan ham ma'lum darajada ma'lumot olganman" – degan ekan[14]. Uning Abulqosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy kabi Sharqning buyuk shoir va mutafakkirlari haqida bildirgan fikr-mulohazalari ham ancha teran va qimmatlidir. Ikki jahon urushi davrida Hessenning Olmoniyada urush va millatchilikka

qarshi bayonotlari sababli unga qarshi matbuot kampaniyalari, shuningdek, natsist millatchilari tomonidan kuchli bosim o'tkazildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Hesse aholining katta qismi, ayniqsa, o'sib ulg'ayib borayotgan yosh avlodning ma'naviy va axloqiy ehtiyojlarini qondirishga ulkan hissa qo'shdi. Shuning uchun asralarining aksariyati faqatgina 1945-yilden so'ng qayta kashf etilgan.

**Xulosa.** Hesse adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lganidan o'n yil o'tgach yana Olmoniyada uning asarlari qattiq tanqid ostida qoladi va mamlakatda mavqeyini ma'lum darajada yo'qotadi, biroq xuddi shu davrda AQSHda Hessening asarlari qo'lma-qo'l bo'lib u eng sevimli yozuvchilar qatoridan oldingi o'rirlarni egallaydi. 1960-yillarda esa Olmoniyada Hessexonlik yana avj oladi. Jumladan, "Cho'l bo'risi (Der Steppenwolf)" xalqaro bestsellerga, Hessening o'zi esa eng ko'p tarjima qilingan va o'qiladigan olmon mualliflaridan biriga aylanadi. Uning asarlari nomiga taqlid qilib musiqaning Rok yo'naliishi bo'yicha guruhlar tashkil qilindi. Olmoniya va boshqa mamlakatlarda Hermann Hesse jamiyatlari tuzildi. Uning asarlari 2007-yil hisobida 120 milliondan ortiq nusxada butun dunyo bo'ylab sotilgan. Hesse xotirasiga uchta adabiy mukofot ta'sis etilgan: 1957-yildan beri berilib kelinayotgan Karlsruhedagi Hermann Hesse adabiy mukofoti, 1990-yildan beri Kalv Herman Hesse jamg'armasi tomonidan beriladigan Kalvdagi Hermann Hesse mukofoti va 2017-yildan beri Xalqaro Herman Hesse jamiyati tomonidan beriladigan Hrmann Hesse mukofoti.[15]

### Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Volker Michels (Hrsg.): *Über Hermann Hesse*. Band 1: 1904–1962, Repräsentative Textsammlung zu Lebzeiten Hesses. Frankfurt am Main 1979, [ISBN 3-518-06831-8](#), S. 400.
2. Hermann Hesse: *Briefe*. Verlag Suhrkamp, Frankfurt am Main 1964, S. 414.
3. Heimo Schwilk: *Hermann Hesse*. 2012, S. 43
4. Vgl. das Kapitel „Rückkehr nach Orplid. Erinnerungslandschaft Tübingen, S 322 fast unversehrt“ über Hesses Tübinger Zeit in Albert von Schirnding: *Literarische Landschaften* Insel, Frankfurt 1998. Ein weiteres Kapitel behandelt das „Presselsche Gartenhaus“, dem Hesse eine gleichnamige Novelle gewidmet hat, mit [Wilhelm Waiblinger](#), Hölderlin und [Eduard Mörike](#) als Protagonisten.
5. Heimo Schwilk: *Hermann Hesse*. 2012, S. 43-45.
6. [Kurzbiografie](#) auf die-biografien.de.
7. Barbara Hess: Hermann Hesse und seine Verleger: die Beziehungen des Autors zu den Verlagen E. Diederichs, S. Fischer, A. Langen und Suhrkamp. Otto Harrassowitz Verlag, 2000, [ISBN 3-447-04267-2](#) ([google.at](#) [abgerufen am 15. November 2018]).
8. Heimo Schwilk: *Hermann Hesse*. 2012, S. 181. Mehr zu Hesses anfangs zwiespältiger Haltung zum Krieg siehe Heimo Schwilk: *Hermann Hesse*. 2012, S. 179–189, und Gunnar Decker: *Hermann Hesse*. 2012, S. 289–297.
9. Georg A. Weth: *Hermann Hesse in der Schweiz*. 2004, [ISBN 3-7844-2951-3](#), S. 24.
10. Thomas Mann: Hermann Hesse zum siebzigsten Geburtstag. In: Gesammelte Werke in dreizehn Bänden. Zweite, durchgesehene Auflage (zuerst 1960). Band X. S. Fischer Verlag, Frankfurt a. M. 1974, [ISBN 3-10-048177-1](#), S. 519
11. Materialien zu Hesses *Siddhartha*, Band 2, S. 302, Zit. v. 24. Januar 1973.
12. "Alle meine Figuren sind feige!" Interview von Dieter Oßwald mit Leander Haußmann, Schwäbisches Tagblatt Tübingen 18.5.2022, [online erschienen bei der Südwest Presse am 17.5.2022](#).

13. Hermann Hesse: *Spaziergang in Würzburg*. Tschudy & Co, St. Gallen o. J. (Privatdruck mit Bewilligung des Dichters auf Veranlassung von Franz Xaver Münzel in Baden zu Gunsten der Stadt Würzburg).
14. Petra Trinkmann: *Madonnen und Fische. Hermann Hesse*. In: Kurt Illing (Hrsg.): *Auf den Spuren der Dichter in Würzburg*. Eigenverlag (Druck: Max Schimmel Verlag), Würzburg 1992, S. 81–89; hier: S. 82.
15. Hermann Hesse: *Sämtliche Werke* in 20 Bänden und 1 Registerband. Hrsg. Volker Michels. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main 2003, [ISBN 3-518-41114-4](#), Band 14, S. 151.
16. Barbara Hess: *Hermann Hesse und seine Verleger. Die Beziehungen des Autors zu den Verlagen E. Diederichs, S. Fischer, A. Langen und Suhrkamp*. Harrassowitz, München 2000, [ISBN 3-447-04267-2](#), S. 73.
17. [Informationen](#) der [Nobelstiftung](#) zur Preisverleihung 1946 an Hermann Hesse (englisch) mit [Autobiografie](#) (englisch)
18. Hermann Hesse. Kleine Prosa. – Moskau: “Verlag Progress”, 1981. – S.357
19. Internationale Hermann Hesse-Gesellschaft: [Adolf Muschg erster Preisträger des neu ausgelobten Preis der Internationalen Hermann Hesse Gesellschaft \(Memento vom 19. Juni 2019 im Internet Archive\)](#).

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº 1 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).